BYUJDET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG‘LARI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirov Sulaymon Murodbekovich*-Bank-Moliya akademiyasi magistranti*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan e’tiboran, moliya, bank va soliq tizimidagi boshlang‘ich islohatlar davom etmoqda. Bugungi kunda byudjet-soliq siyosati borasida olib borilayotgan o‘zgarishlarning markazida byudjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligini ta’minlash hamda ularning samaradorligini oshirish masalalarini hal etish taqozo etilayotgan dolzarb masala hisoblanadi. Zero, iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohatlarning chuqurlashuvi jarayonida byudjet-soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Davlat moliyaviy nazorati va audit tushunchalari qator mahalliy va xalqaro olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular olib borgan nazariyalar , tadqiqotlar aks etgan nashrlarni tahlil qilish orqali, moliyaviy nazorat tushunchasi haqida bildirilgan turli fikr-mulohazalar bir nechtasi o‘rganib chiqildi.

Yuqori turuvchi nazorat organlari xalqaro tashkiloti(INTOSAI)ning IX Kongressida 1977 yilda qabul qilingan “Xalqaro Lim deklaratsiyasi” (Ispancha: Declaración de Lima – jamoat nazorati va davlat auditi sohasida asosiy yo‘naltiruvchi xujjat)ning 1- moddasi shunday izox berilgan: Nazorat davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning majburiy elementi hisoblanadi, natijasi esa jamiyat oldidagi javobgarlikni yuzaga keltiradi. Nazorat- bu alohida bir maqsad emas, balki tartibga solish tizimining ajralmas qismidir. Uning maqsadi qabul qilingan tartib-qoidalardan chetga chiqilishi va moddiy resurslarni sarflash tamoyillari, qonuniyligi, samaradorligi va tejamkorligi buzilishini imkon qadar dastlabki bosqichda aniqlash, shu bilan bir qatorda bartaraf etish choralarini ko‘rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, etkazilgan zararni o‘rnini qoplash, shuningdek kelajakda bunday xuquqbuzarliklarni oldini olish yoki kamaytirish choralarini ko‘rishdan iborat.

Rossiyalik olimlardan esa, moliyaviy nazoratning mohiyatini to‘laroq anglash uchun, quyidagicha ta’rif berishadi: N.S.Malein bu borada: “Moliyaviy nazorat - tekshiruvda qonuniylik, asoslilik va pul xarajatlarining to‘g‘ri sodir etilganligini aniqlashdan iborat bo‘lgan hamda rejalarning bajarilish jarayonida moliyaviy, byudjet, kredit, hisob-kitob va kassa intizomini ta’minlashga qaratilgan, moliyaviy, kredit va xo‘jalik organlari (tashkilotlari)ning huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinadigan faoliyatidir”, deb ta’kidlaydi.

T.V.Konyuxova: “Moliyaviy nazorat – mamlakat va uning alohida hududlarini samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish sub’ektlari pul fondlarini shakllanish, taqsimlash va foydalanish sohasidagi harakatning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi ustidan nazorat”, deb izohlaydi.

A.N.Kozirin esa: “Moliyaviy nazorat – davlat organlarining maxsus tashkiliy shakl va usullar yordamida, ayrim hollarda nodavlat organlarining qonunda keltirilgan vakolatlari doirasida moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va haqqoniyligini aniqlash, moliya-xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ob’ektiv baholash, rezervlarni aniqlash va oshirish, byudjet daromad tushumlarini ko‘paytirish va davlat mulkini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatidir”, deya ta’kidlaydi.

Shuningdek, S.O.Shoxin, uni: “Moliyaviy nazorat – davlat va jamoat organlarining davlat byudjeti daromadlari rezervlarini izlash, xo‘jalik va moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda qonuniyligini o‘rnatish, ushbu faoliyatning iqtisodiy samaradorligini ob’ektiv baholash maqsadida, korxona, muassasa va tashkilotlar moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan belgilangan nazorat funktsiyalarini kuzatishning ko‘p qirrali, tarmoqlararo tizimidir”, deya ifodalaydi.

Bashkatova T.A. ham bu borada, unga: “Moliyaviy nazorat: 1) barcha iqtisodiy sub’ektlar moliyaviy intizomi va moliyaviy qonunchiligiga rioya etilishi ustidan maxsus yaratilgan nazorat organlarining qat’iy reglament(chegara)langan faoliyatidir; 2) moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta’minlash maqsadida, makro va mikro darajadagi pul oqimlari va moliyani boshqarishning ajralmas elementidir”, deb o‘z fikrlarini bildiradi.

Mahalliy olim Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B.lar esa, unga quyidagicha izox beradi: “Moliyaviy nazorat – moliyaviy resurslar harakatining hamma jarayonlarini ya’ni, mablag‘larni tashkil topish jarayonidan boshlab, har qanday faoliyatni boshlashdan, to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida davlat moliyaviy nazorati va uni amalga oshirishga quyidagicha ta’rif berilgan: “Davlat moliyaviy nazorati - byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat ob’ektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslash”. Yuqoridagi fikrlar va qarashlarni cheksiz davom ettirish mumkin, lekin bir narsani ta’kidlash joizki nazariya doimo amaliyotdan oldinda yurishi lozim.

Tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, byudjet qonunchiligini buzilishi holatlari yildan yilga ortib bormoqda. Ortib borishiga esa bir nechta omillar ta’sir qilishi mumkin: tekshirishlar soni ko‘payganligi, byudjet xarajatlari oshganligi, davlat moliyaviy nazorati xodimlar soni ko‘payganligi, ularni malaka ko‘nikmalari oshganligi va boshqalar. Ammo bizning nazarimizda bu omillar yuqoridagi ko‘rsatgichlarni ortishiga bu darajada ta’sir qilmaydi. Bizning fikrimizcha bunga asosiy sabablardan biri moliyaviy operatsiyalarda IT texnologiyalarni yetarli tadbiq qilinmaganligi, kadrlarni malakasini oshirish yuzasidan maxsus o‘quv seminarlar tashkil qilinmaganligi, har bir nazoratchi nazorat ob’ektida o‘zi malakasi etganicha moliyaviy

nazorat tadbirini amalga oshirayotganligi, moliyaviy nazorat tadbiri davrida daromadlar va xarajatlar nazorati to‘liq qamrab olinmasligi, xududiy davlat moliyaviy nazorati boshqarmalarida mutaxassislarni oylik maoshi kamligi, ular faoliyati maxalliy xokimiyat organlari nazoratidaligi, to‘liq mustaqil emasliklari va boshqalar.

Shunga e’tibor qaratish lozimki, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar Davlat moliyaviy nazorati Departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshirilgan nazorat tadbirlari natijalari hisoblanib, foydalanuvchilarga to‘g‘ri va aniq ma’lumotni ifoda ettira olmaydi. Sababi, Byudjet kodeksida davlat moliyaviy nazorati organlari O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlari etib belgilangan. Shuningdek, vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari bo‘limlari ham ushbu funktsiyani amalga oshiradi. Shuni ta’kidlash joizki, yuqoridagi ma’lumotlarni jamlab, taxlil qilib, foydalanuvchilarga yagona ma’lumotni taqdim etadigan ma’sul organ belgilanmagan. Shuningdek, Byudjet kodeksida ichki audit vazifalari, funktsiyalari, bo‘ysunish darajasi, hisobdorligi va boshqa xuquqiy axamiyatlari belgilab berilmagan. Bir so‘z bilan aytganda, shu kunga qadar Davlat moliyaviy nazorati va ichki auditida yagona siyosat yuritish, moliyaviy nazorat organlarini uslubiy ta’minlash, faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas’ul organ belgilanmagan. Hozirgi vaqtda amalda bo‘lgan davlat moliyaviy nazorati tizimi to‘liq salohiyatda natijasini bergani yo‘q (1-rasm).

1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Davlat moliyaviy nazorati tizimi.

Byudjet tizimida davlat moliyaviy nazoratini shunday tashkil etish lozimki byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan noqonuniy xarakatlarga texnik jixatdan yo‘l qo‘ymaslik yoki bunday xarajatlar amalga oshirilganda xavf tahlili orqali real vaqt rejimda oshkor bo‘lishi lozim. Va albatta, aybdorlarga nisbatan doimo qonuniy chora ko‘rilishi lozim.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni keng ko‘lamda olib borilayotganligi bilan birgalikda, byudjet hisobini yuritishni ham respublika bo‘yicha yagona dasturiy majmuada yuritilishi joriy etilgan. Bundan tashqari, Moliya, G‘aznachilik tizimi ish faoliyatlari ham alohida yagona dasturiy majmuada yuritilib kelinmoqda. Bir qarashda, shu bilan ish jarayonida inson omili natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xato kamchiliklarga barxam berildi deb o‘ylash mumkin. Lekin, barcha byudjet hisobi operatsiyalari dasturiy majmualarda yuritilishiga qaramasdan, byudjet qonunchiligini buzish holatlari sezilarli darajada kamaygani yo‘q, aksincha o‘sib bormoqda.

Shu munosabat bilan, 2021 yil 27 avgustda “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6300-son Farmoni qabul qilindi. Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda byudjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va turlariga qo‘shimcha quyidagilar amaliyotga joriy etildi:

-buxgalteriya (byudjet) hisobi yuritilishini, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini, moliyaviy resurslardan maqsadli va qonuniy foydalanilganligini hamda daromadlarning to‘liqligini, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini baholashni nazarda tutuvchi moliyaviy audit;

-konsolidatsiyalashgan va jalb qilingan byudjet mablag‘laridan foydalanishda, davlat xaridlarini amalga oshirishda, shuningdek, daromadlarning to‘liqligini ta’minlash va biznes jarayonlarida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinganligini va ularning davlat dasturlariga muvofiqligini tekshirish va baholashni nazarda tutuvchi muvofiqlik auditi;

-nazorat ob’ektida xarajatlar, subsidiyalar, imtiyozlar va preferentsiyalarning samaradorligi va natijadorligini, ajratilgan mablag‘lardan foydalanishning tejamkorligini, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishini, konsolidatsiyalashgan byudjet va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi va natijadorligini, shuningdek, davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganligini baholash va tahlil qilishni nazarda tutuvchi samaradorlik auditi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Davlat moliyaviy nazorratini samarali va keng qamrovli tashkil etish, moliyaviy operatsiyalarda inson faktorini kamaytirish, tizimli

yo‘l qo‘yilayotgan moliyaviy xato-kamchiliklarni oldini olish maqsadida quyidagilarni joriy etish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

1. “Davlat moliyaviy nazorati va auditi to‘g‘risida” Qonun qabul qilish, Qonunda davlat nazorat organlari va ichki audit xizmatlarining vazifalarini aniq belgilash;

2. Hisob palatasi tizimida Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutini tashkil etish;

3. Oliy ta’lim muassalari hamda tizimda ish faoliyatini boshlagan xodimlarga nazariy va amaliy o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqish;

4. Barcha byudjet hisobi moliyaviy operatsiyalari informatsion texnologiyalar, maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar orkali elektron tarzda amalga oshirilishini inobatga olgan holda, davlat byudjeti mablag‘larini hisob kitobi bilan bog‘liq dasturiy majmualarni nazorat kilish auditi sho‘’basini tashkil etish. Ushbu sho‘’ba xodimlariga yuklatiladigan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- Davlat moliyaviy nazorati yakuni bilan mavjud avtomatlashtirilgan dasturiy majmualarda tizimli aniqlanayotgan xato va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish;

- Inson faktori bilan yo‘l qo‘yilayotgan moliyaviy xato kamchiliklarni tizimli aniqlash hamda avtomatlashtirilgan dasturlar bilan to‘liq qamrab olishni tashkillashtirish;

- Vazirliklar, idoralar va boshqa yuridik shaxslar nazoratida mavjud bo‘lgan avtomatlashtirilgan dasturlarning elektron bazalaridan foydalangan holda, byudjet mablag‘lari sarflanishi jarayonida moliyaviy xavflarni baxolovchi hamda xabar berib boradigan tizimni yaratish, doimiy nazorat qilib borish va boshqalar.

O‘ylaymizki, tizimni takomillashtirish uchun berilayotgan takliflar amalga oshgan taqdirda, quyidagi ijobiy natijalarga erishilishi mumkin bo‘ladi.

1. “Davlat moliyaviy nazorati va auditi to‘g‘risida” Qonun qabul qilinishi orqali davlat moliyaviy nazorat organlari va ichki audit xizmatlarining vazifalari aniq belgilanadi;

2. Barcha moliyaviy nazorat organlari uchun yagona ma’lumotlar bazasi yaratilib, kameral nazorat, risk-tahlil asosida keng qamrovli nazorat tizimi tashkillashtiriladi;

3. Davlat moliyaviy nazorati hodimlarini malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi yaratilib, xodimlarning saviyasi va amaliy ko‘nikmalari oshiriladi, tizim uchun yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar ish faoliyatini samarasini oshiradi.

4. Tekshirishlarni takrorlanishi oldi olinadi, korruptsiya holatlari kamayadi, byudjet tashkilotlarining byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytish joizki, oxirgi yilllarda barcha sohalarda olib borilayotgan ijobiy o‘zgarishlar, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda davlat moliyaviy nazorati tizimini ham jaxhon

standartlariga mos ravishda shakllantirish, sifat jixhatdan yangi bosqichga olib chiqish Respublikamizni iqtisodiy rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Limskaya deklaratsiya rukovodyashchix printsipov kontrolya prinyataya IX Kongressom Mejdunarodnoy organizatsiey visshix organov finansovogo kontrolya (INTOSAI) v g. Lime (Respublika Peru) v 1977 g.
2. Malein N.S. Kreditno-raschetnie pravootnosheniya i finansoviy kontrol. – M.: Nauka, 1964. S.103.
3. Konyuxova T.V. Pravovie akti ob organax, osushchestvlyayushchix finansoviy kontrol. // Zakonodatelstvo i ekonomika. 1997. №19/20. S.25.
4. Kozirin A.N. Finansoviy kontrol. // Finansovoe pravo: uchebnik. / Pod red. prof. O.N. Gorbunovoy. – M.: Yurist’, 1996. S.48.
5. Shoxin S.O. Problemi i perspektivi razvitiya finansovogo kontrolya v Rossiyskoy Federatsii. 1999. S.6.
6. Bashkatova T.A. Sushchnost i funktsii finansovogo kontrolya. Uchebnik Finansi. /Pod red. prof. L.A. Drobozinoy. 2001. S. 385.
7. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. / O‘quv qo‘llanma.–T.: infoCOM.uz MChJ nashriyoti, 2009, -192 b(7 b.).
8. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 2013 yil 26 dekabr, 360- sonli O‘RQ. 3-modda, 170-modda;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoni, 27.08.2021 https://lex.uz/docs/5607471
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020; https://president.uz/oz/lists/view/3324
11. O‘zbekiston Respublikasi “Hisob Palatasi to‘g‘risida” gi qonuni, 2019 yil 1 iyuldagi O‘RQ 546-sonli http:// www.lex.uz;
12. Maslova T.S. Kontrol i reviziya v byudjetnix uchrejdeniyax. Uchebnoe posobie. 2-e izdanie. 2017 g.s.9
13. https://mf.uz/uz/ministry/open-data-portal/portal-otkrytykh-dannykh.html
14. R.Karlibaeva. (2021). THEORY OF FINANCE AND FINANCING STRATEGIES. International Journal of Advanced Research. https://doi.org/10.21474/ijar01/12480
15. Piven E.V., Bedrachuk I.A. “Gosudarstvennoe i munitsipalnoe upravlenie”. Ucheb. posobie/ Vladivostok: Izd-vo VGUES, 2008. str -58.
16. Malikov T.S, Haydarov N.H. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma.-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.84-bet.
17. Blumentritt T., Integrating strategic management and budgeting, Journal of Business Strategy, 27 (6) (2006), pp. 73– 79.

18. Horngren, C.T., Stratton, G.L., Sutton, W.O., Teall, H.D., "Management Accounting", 4th ed. Prentice Hall, Toronto, 2004.
19. V.M. Galperin, S.M. Ignatev, V. I. M. (2007). "MIKROEKONOMIKA." Book, 426. https://gain.fas.usda.gov/Recent GAIN Publications/Agricultural Biotechnology Annual_Ottawa_Canada_11-20